BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IQTISODIY TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI.

Yo‘lchiyeva Shaxloxon Obidjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya
Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy tasavvurlarni rivojlantirishda oila va maktab hamkorligining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. O‘quvchilarda iqtisodiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishda oiladagi iqtisodiy tarbiya hamda maktabda olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonining o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari oila va maktabning tizimli hamkorligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining iqtisodiy tasavvurlarini boyitish hamda ularning iqtisodiy madaniyatini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: *iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy madaniyat oila, maktab, hamkorlik, moliyaviy savodxonlik, tejamkorlik, Cho‘ntak puli (pocket money)*

KIRISH

XXI asrda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — o‘quvchilarni nafaqat akademik bilimlar bilan qurollantiribgina qolmay, balki hayotiy ko‘nikmalar, jumladan iqtisodiy tafakkur asoslari bilan ham boyitishdir. Globallashuv jarayonlari, bozor iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida iqtisodiy savodxonlik zamonaviy insonning muhim sifatiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Maktab ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi”da shaxsni har tomonlama kamol toptirish, shu jumladan iqtisodiy madaniyatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu yo‘nalishda boshlang‘ich ta’lim poydevori bo‘lganligi bois, 1–4-sinf o‘quvchilarida iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarning asoslarini shakllantirish masalasi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tarbiya – o‘quvchilarda iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularda iqtisodiy hodisalarga ongli munosabatni rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun iqtisodiy tarbiya tejamkorlik, mehnatsevarlik, mas’uliyat, mulkka ehtiyotkorona munosabat, vaqtni qadrlash va oqilona qaror qabul qilish kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.Boshlang‘ich ta’lim davrida bolalar atrofdagi iqtisodiy munosabatlarni kuzatish va tushunishga qiziqadilar. Shu sababli iqtisodiy tarbiya jarayonida kundalik hayot bilan bog‘liq misollar, o‘yinlar, amaliy topshiriqlar va hayotiy vaziyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy madaniyat — bu insonning iqtisodiy borliqqa nisbatan munosabatlar tizimi bo‘lib, u iqtisodiy bilimlar, qadriyatlar, normalar, xulq-atvor ko‘nikmalari va iqtisodiy fikrlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu tushuncha XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogika, iqtisodiyot va sotsiologiya fanlari kesishmasida rivojlana boshlagan. Ilmiy adabiyotlarda “iqtisodiy madaniyat” tushunchasi turlicha talqin etiladi. Rossiyalik iqtisodchi olim V.D.Popov[9] iqtisodiy madaniyatni “shaxsning

[9] Попов В. Д. Экономическая культура: (Теоретико-методологический анализ). – М.: Мысль, – 238 с.

iqtisodiy ongini, iqtisodiy xulq-atvorini va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ijodiy yondashuvini belgilovchi sifatlar majmui” sifatida tavsiflaydi. Iqtisodiy madaniyat murakkab, ko‘p qatlamli tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Tarkibiy qism	Mazmuni
Iqtisodiy ong	Iqtisodiy voqelikni anglash, iqtisodiy jarayonlarni tushunish va tahlil qilish qobiliyati
Iqtisodiy tafakkur	Muammolarni iqtisodiy nuqtai nazardan ko‘ra bilish, sabab-oqibat aloqalarini topish
Iqtisodiy munosabatlar	Mehnat, mulk, daromad, xarajat va jamg‘armaga ongli va masʻul yondashuv
Iqtisodiy xulq-atvor	Resurslarni oqilona ishlatish, byudjet rejalashtirish, isrofgarchilikdan qochish
Iqtisodiy ijodkorlik	Yangi g‘oyalar, tadbirkorlik ruhi, muammolarni ijodiy hal etish ko‘nikmasi

1-jadval. Iqtisodiy madaniyatning tarkibiy qismlari**.**

Yuqoridagi tarkibiy qismlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning barchasi birgalikda yaxlit iqtisodiy madaniyatni tashkil etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu tarkibiy qismlarning yosh xususiyatlariga mos va soddalashtrilgan shaklda o‘rgatilishi zarur. Iqtisodiy bilim va iqtisodiy madaniyatli insonda esa moliyaviy savodxonlik shakllanishni boshlaydi.

Moliyaviy savodxonlik — bu shaxsning moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar va tushunchalarni tushunish, shuningdek pul, kredit, investitsiya va sug‘urta kabi sohalarda ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatidir.Bu xususiyatlarni bolalikdanoq yaxshi rivojlanishi uchun esa oila va maktab hamkorligi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi zarur.

Oila — bolaning birinchi va eng ta’sirchan iqtisodiy muhiti. Bola hayotining dastlabki kunlaridanoq pul, narx, xarid, mehnat va tejamkorlikni ota-onasi orqali taniydi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 3–5 yoshli bolalar allaqachon “pul”, “do‘kon”, “narx” kabi tushunchalarni his qila boshlaydi va ularga nisbatan dastlabki munosabatlari aynan oila muhitida shakllanadi. O‘zbek oilasining anʻanaviy qadriyatlari — mehnatsevarlik, tejamkorlik, qanoatlilik, mehmon navozlik va o‘zaro yordam — iqtisodiy tarbiyaning tabiiy asosini tashkil etadi. Bu qadriyatlar asrlar mobaynida avloddan-avlodga o‘tib kelgan bo‘lib, bugungi iqtisodiy tarbiya metodikasi ularni ilmiy va pedagogik jihatdan mustahkamlashga yo‘naltirilishi lozim.

Oilada iqtisodiy tarbiyani tashkil etishning quyidagi asosiy shakllari ajratib ko‘rsatiladi:

Shakl	Mazmuni	Yosh guruhi
Kundalik suhbat	Xarid, xarajat, ish haqi haqida oddiy muloqot	1–4-sinf
Bozorga birgalikda borish	Narxlarni solishtirish, saralash, byudjet bilan mos xarid	2–4-sinf
Cho‘ntak puli (pocket money)	Bolaga ma’lum miqdor pul berib, uni rejalashtirishga o‘rgatish	3–4-sinf
Oila byudjeti muhokamasi	Oylik daromad va xarajatni bolaga sodda tarzda tushuntirish	3–4-sinf
Tejamkorlik banki	Bola o‘z qo‘chcha bankasida pul yig‘adi va maqsad belgilaydi	1–4-sinf
Mehnat va haq to‘lash	Uy ishlarini bajarish evaziga ramziy mukofot yoki baholarni qayd etish	2–4-sinf
Tadbirkorlik o‘yini	Uyda “mini-bozor”, “do‘kon” o‘yini tashkil etish	1–3-sinf
Loyiha va maqsad kartasi	Bola biror narsani sotib olish uchun pul yig‘ash rejasini tuzadi	3–4-sinf

2-jadval. Oilada iqtisodiy tarbiyani tashkil etish shakllari

Maktab va oila hamkorligi pedagogikaning doimiy mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Ammo moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy tarbiya sohasida bu hamkorlik ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bolaning iqtisodiy xulq-atvori asosan oilada shakllanadi. Agar maktab “tejamkorlik yaxshi” desa, oila esa isrofgarchilikni namoyish qilsa, bolada ikki qarama-qarshi xulq-atvor namunasi shaklanadi va bu nizoli vaziyatga olib keladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, ota-ona faol ishtirok etgan o‘quvchilar iqtisodiy tushunchalarni 40–60% samarali o‘zlashtiradi. Bu ko‘rsatkich o‘qituvchi uchun muhim signal: ota-onalar bilan o‘rnatilgan tizimli hamkorlik —

darsning samaradorligini ikki baravar oshirish imkonini beradi. Ota-onalar uchun bolalar bilan shug‘ullanish jarayonida e’tibor qaratishlari lozim bo‘lgan 10 ta muhim oltin qoidalarni tavsiya qilish mumkin.

Ota-onalar uchun “10 ta oltin qoida”

- Bolaga maqsad qo‘yishni o‘rgatib, unga yetishda birgalikda yordam bering.
- Xarid qilayotganda bolani olib boring va narxlarni birga solishtiring.
- Pulni ehtiyotkorlik bilan sarflashingizni bola ko‘rsin.
- Daromad va xarajat haqida yoshiga mos tilda gapiring.
- Tejagan pulni birga sanaing va maqsadga yaqinlashayotganingizni nishonlang.
- Bolaning cho‘ntak pulini nazorat qilmang — maslahat bering.
- Isrofgarchilikni eʻtiroz bilan emas, muloqot orqali to‘xtating.
- Mehnat va uning qiymatini ertaklar, misollar, hikoyalar orqali tushuntiring.
- Iqtisodiy muvaffaqiyatlarini rag‘batlantiring va maqtang.
- O‘zingiz namuna bo‘ling — bola ko‘radi, eshitadi, takrorlaydi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida iqtisodiy tarbiya va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. O‘quvchilar iqtisodiy tushunchalarni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirgandagina ular hayotiy ko‘nikmaga aylanadi. Shu sababli amaliy materiallar, vaziyatli topshiriqlar va loyihalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy madaniyat hamda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishning samarali vositalari hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda quyidagi o‘yinlarni tashkil etish orqali iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish mumkin:

- ✓ “Mening jamg‘arma qutim”;
- ✓ “Bir haftalik xarajatlarim”;
- ✓ “Tejamkor oila”;
- ✓ “Suv va elektr energiyasini tejaymiz”;
- ✓ “Maktab yarmarkasi”;
- ✓ “Kelajakdagi kasbim va daromadim”.

Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarda iqtisodiy rejalashtirish, jamoada ishlash, mas’uliyatni his etish, tadbirkorlikka qiziqish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiy tarbiya va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishda amaliy materiallar, vaziyatli topshiriqlar va loyihalar muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘laydi, iqtisodiy madaniyatni rivojlantiradi hamda moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, ota-onalar va pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyati, iqtisodiy mazmundagi amaliy topshiriqlar, suhbatlar, loyihalar hamda tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilarning iqtisodiy tasavvurlarini boyitishda yuqori samaradorlikka ega. Demak, boshlang‘ich ta’lim jarayonida oila va maktab hamkorligini kuchaytirish iqtisodiy jihatdan ongli, mas’uliyatli va faol shaxsni tarbiyalashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. Maktab ta’limini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. — Toshkent, 2020.
3. Hasanov R. va boshq. Boshlang‘ich sinflarda iqtisodiy ta’lim asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Toshmatov S. Oilaviy iqtisodiy tarbiya. Toshkent: Yangi nashr, 2019.
5. Xoliqov A. Iqtisodiy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan.
6. Avanesova G.A. Ekonomicheskoe vospitanie mladshix shkolnikov. — Moskva: Prosveshenie,
7. Popov V.D. Ekonomicheskaya kultura lichnosti. — Moskva: Nauka.
8. Lusardi A., Mitchell O.S. The Economic Importance of Financial Literacy. Journal of Economic Literature.
9. Выготский Л. С. Мышление и речь. – СПб.: Питер,– С. 299.
10. Suxomlinskiy V.A. Serdtse otdayu detyam. Kiev: Radyanska shkola,.
11. Forbes (2019). Warren Buffett's Best Advice On Teaching Kids About Money. Forbes Magazine. Retrieved from Forbes Financial Education Series.